

## **Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023- yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar**

Kengashning kengaytirilgan yig'ilishini Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i L.Mirsoatov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 22- yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi" doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so'zsiz, sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2023- yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar hamda Toshkent shahr statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, "2023- yil uchun Statistika ishlari dasturi" doirasida boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari tomonidan 2023- yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 130 035,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,6 % ga o'sdi.

Shuningdek, shahardagi korxonalar tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylari davomida 108 988,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 105,4 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 201,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ga yetdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 32 210,8 mlrd, so'm yoki 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 105,3 % qurilish ishlari bajarildi.

Jami qurilish ishlaridan 58,9 % yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirish ishlariga to'g'ri keladi, shuningdek, 41,1 % kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlarini tashkil etdi.

Davlat xizmatlari agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 135 485 tani tashkil etib, ulardan 99 460 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida 15 864 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 230 taga ko'p.

Xizmat.Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 43 725,6 mlrd. so'mni, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 69 420,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ga yetdi. Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 21 571.4 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 4 519,7 mln. AQSH dollarini va import – 17 051,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2023- yilning 1- oktabr holatiga koʻra Toshkent shahari boʻyicha doimiy aholi soni 3 020, 5 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 64,1 ming kishiga yoki 2,2 % ga oʻsdi.

Soʻz yakunida, Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshligʻi L.Mirsoatov yigʻilish davomida kun tartibiga muvofiq, tizimda “Statistika dasturi”ning ijrosi hamda Kengashning 2023- yil II yarim yillik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi boʻyicha boshqarmaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini taʼkidladi va kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga oʻtilishini eʼtirof etdi.